



AKHMAD TASHKUPRIZADE'S "KIRK HADIS" COLLECTION

Urolbek Berkinovich Ergashev

Docent of the department of "Social-humanitarian sciences and history"

Doctor of philosophy (PhD) in philosophy

Tashkent international university of financial management and technologies

e-mail: urolbekjanoblari@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Tashkuprizada, ethics, Islamic ethics, sufism, sufi, "Lataif un-Nabi", hadis, joke, "Forty hadis".

Received: 11.12.25

Accepted: 12.12.25

Published: 13.12.25

Abstract: Many works on the science of hadith were created in the Ottoman Empire. One of these works is "Lataif un-Nabi" by Akhmad Tashkuprizada, which contains the jokes of our Prophet. This work, which collects the jokes of our Prophet, gives us information about how our attitude and behavior should be towards jokes. The work contains forty hadith commentaries. This work helps to determine the place and level of humor in Islamic ethics. The article provides detailed information about this.

AHMAD TOSHKO'PRIZODANING "QIRQ HADIS" TO'PLAMI

Urolbek Berkinovich Ergashev

"Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix" kafedrasida dotsenti v.b.

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti

e-mail: urolbekjanoblari@gmail.com

Toshkent O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Toshko'prizoda, axloq, islom axloqi, tasavvuf, so'fiy, "Latoif un-Nabi", hadis, hazil, "Qirq hadis".

Annotatsiya: Usmoniyar imperiyasida hadis ilmiga oid ko'plab asarlar yaratilgan. Bu asarlardan biri Ahmad Toshko'prizodaning Payg'ambarimizning hazillarini o'z ichiga olgan "Latoif un-Nabi"dir. Payg'ambarimizning hazillarini jamlagan bu asar hazil-mutoyibaga nisbatan munosabatimiz va xulq-atvorimiz qanday bo'lishi kerakligi haqida bizga ma'lumot

beradi. Asarda qirqta hadis sharhi keltirilgan. Ushba asar Islom axloqshunosligida hazilning o'zni va darajasini aniqlashga ko'maklashadi. Maqolada bu haqida batafsil axborot berilgan.

КОЛЛЕКЦИЯ «КИРК ХАДИС» АХМАДА ТАШКЮПРИЗАДЕ

Уролбек Беркинович Эргашев

и.о. доцент кафедры «Социально-гуманитарные науки и история»

Доктор философии (PhD)

Ташкентского университета международного финансового менеджмента и технологий

e-mail: urolbekjanoblari@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ташкюпризада, этика, исламская этика, суфизм, суфий, «Латаиф ун-Наби», хадис, шутка, «Сорок хадисов».

Аннотация: Многие труды по науке хадисов были созданы в Османской империи. Одним из таких трудов является «Латаиф ун-Наби» Ахмада Ташкюпризоды, содержащий шутки нашего Пророка. Этот труд, в котором собраны шутки нашего Пророка, даёт нам представление о том, как нам следует относиться к шуткам и вести себя по отношению к ним. В труде содержится сорок комментариев к хадисам. Этот труд помогает определить место и уровень юмора в исламской этике. В статье представлена подробная информация об этом.

Kirish. Ma'lumki, Ahmad Toshko'prizoda ko'plab asarlar, jumladan, Usmoniylar ilmiy tafakkurida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan ilmlar tasnifiga oid "Muvduot al-Ulum" va o'z davrigacha bo'lgan olimlar haqida hikoya qiluvchi qomusiy asar "Ash-shaqoiq an-nu'maniyya fi Ulamoi'd-Davlat ul-Usmoniyya" asarlari muallifidir.

XVI asrda ko'plab olimlarning fors va arab tillaridagi asarlari usmoniy turkchasiga tarjima qilingan edi. Toshko'prizoda bu asarlardagi bilimlarga tayanib, turli ilmiy sohalaridagi matnlarni sintezlovchi nodir asarlar yaratadi. U buni metafizika haqidagi kitoblarida alohida e'tirof etadi.

Toshko'prizodaning axloqqa oid qarashlari uning islomiy tafakkur an'alaridagi yuksak mahoratini o'zida aks ettiradi. Mutafakkir axloq tushunchasiga ham teologik, ham fiqhiy, ham tasavvufiy, ham falsafiy nuqtai nazardan izoh bera olgan. Uning islom axloqiga oid dunyoqarashiga Tusiyning "Axloq-i Nosiriy", G'azzoliyning "Ihyou Ulumid din", Sayyid Sharif Jurjoniyning "Sharh ul-Mavoqif" va Hamadoniyning "Zahiroat ul-Muluk" asarlari ta'sir ko'rsatgan [1].

Qolaversa, u ko‘plab olimlar, jumladan, hanafiy mazhabining eng ko‘zga ko‘ringan mualliflaridan Abu Hanifa va Sadr ash-Shariyaning asarlaridan manba sifatida foydalanadi. Insonning xulq-atvoriga ta‘sir ko‘rsatadigan fiziognomiya (ilm al-firos – insonning xarakteri va uning yuzi va tanasining tashqi ko‘rinishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadigan fan) va astronomiya kabi ezoterik fanlarning joizligini muhokama qilgandan so‘ng, ularni axloq doirasida ko‘rib chiqqan.

Toshko‘prizoda axloq haqida ikki xil nuqtai nazarga ega. Birinchisi, Kindiydan boshlanib, Ibn Sino, Ibn Miskaveyh, Tusiy kabi siymolar bilan davom etgan axloq tushunchasiga bo‘lgan falsafiy yondashuvdir. Uning ikkinchi nuqtai nazari – tasavvufdagi so‘fiy axloqi tushunchasidir. “Sharh-ul axloq al-Adudiyya” asarida mumtoz axloq muammolarni muhokama qilgan Ahmad Toshko‘prizoda peripatetik falsafada mashhur bo‘lgan masalalardan biri – o‘zlikni tushunish muammosi bilan ham shug‘ullangan. Uning fikricha, inson ruh va tanadan tashkil topgan mavjudotdir. Ruh materiyaga bog‘liq bo‘lmagan mavhum moddadir, tana esa moddiydir. Muallif fazilatlarini hislatlarga ajratgandan so‘ng, avvalgi olimlardan farqli o‘laroq, bu fazilatlarini oyat va hadislar bilan asoslashga harakat qiladi. U axloqni tushunishda G‘azzoliy yo‘nalishidan chetga chiqmagan. Umuman olganda barcha islom mutafakkirlarining axloq sohasidagi ilmiy tadqiqotlarida hadislar ahamiyati yuqori bo‘lgan [1].

Asosiy qism. Ma‘lumki, islom ulamolari asrlar davomida sunnatni anglashda va payg‘ambarlik da‘vatini insoniyatga yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan hadis ilmiga katta e‘tibor qaratib, bu sohada ko‘plab asarlar yaratdilar. Usmoniylar davrida ham olimlar hadis ilmida turli mavzu va shakllarga oid ko‘plab asarlar yaratdilar. Bu asarlardan biri Ahmad Toshko‘prizodaning Payg‘ambarimiz hazillarini o‘z ichiga olgan qirq hadis to‘plamidir. Bu asar hazil-mutoyibaga nisbatan munosabat va xulq-atvorimiz qanday bo‘lishi kerakligi haqida bizga yo‘l ko‘rsatadi.

Nomi bilan mashhur bo‘lgan va hozirda kutubxonalarda qo‘lyozma holida mavjud bo‘lgan ushbu qimmatli asar – “Latoif un-Nabiy”dir. Arab tilida yozilgan ushbu asarda Toshko‘prizoda qirqta hadisni tafsir qilgan. Ushbu asar islom axloqshunosligida hazilga bo‘lgan munosabatni to‘la anglashimizga yordam berishi shubhasizdir. Bilamizki, inson tabiatan qayg‘u, g‘azab va yig‘lash, shuningdek, kulish va quvonch kabi ba‘zi holatlarni boshdan kechirishi mumkin.

Hazil odamlarning kulgi va quvonch kabi tabiiy ehtiyojlarini qondirish usullaridan biridir. Hayotning barcha jabhalarida bo‘lgani kabi, hazil ham muvozanat, mas‘uliyat va ma‘lum chegaralarni talab qiladi. Hazil bilan shug‘ullanayotganda yolg‘on va uydirma gaplardan saqlanish, behayo so‘zlarni ishlatmaslik, o‘zgani jismoniy va ruhiy bezovta qiladigan xatti-harakatlardan qochish, hazil yo‘li bilan bironing mulkini tortib olish, boshqalarni qo‘rqitish yoki xavotirga solishdan qochish, hazilning diniy tamoyillar bilan bog‘liq bo‘lmasligini ta‘minlash kabi

ma'lum qoidalarga rioya qilish kerak. Bu borada haddan oshib ketish qalbning o'limiga, qadr-qimmatiga va jiddiyligiga putur yetkazishi, odamlar o'rtasida gina, araz, janjal va nafratning shakllanishiga, nohaq masxara qilinishga olib kelishi mumkin [2].

Hazillashish aslida rost narsalar bilan bo'lgandagina haqiqiy ko'ngil yozilishiga, undan ko'zlangan maqsadlar hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Ammo islomda harom qilingan narsalarni hazilga vosita qilish mumkin emas. Odatda, ko'p tarqalgan quyidagi "hazil"lar kishi saqlanishi lozim bo'lgan nojoyiz ishlar hisoblanadi: hazillashib qo'rqitish; yuziga turli niqoblar taqib bironi qo'rqitib "hazillashish"; yashirinib turib, birdan baqirib cho'chitib "hazillashish"; biror narsasini yashirib qo'yib "hazillashish".

Ma'lumki, turkiychada "Qirq hadis", arabchada "Arbaun", forschada "Chihil hadis" nomlari bilan mashhur bo'lgan bu kitob janri hijriy VII asrning oxirlarida paydo bo'lgan tasnif shaklidir. Islom olamida Arbaun janrining eng mashhur namunasini yozgan Imom Navaviy o'zining "Al-Arbaun an-Navaviyya" nomli asarining muqaddimasida bu janrning asoschisi sifatida Abdulloh ibn Muborak (vafoti 797-yil) deb yozilgan [3].

Toshko'prizoda "Latoif un-Nabiy"ning kirish qismida asarni yozish sababini aytadi. U qirq hadisdan iborat asar tuzib, o'zidan oldingi buyuk allomalar izidan borish istagida ekanligini ta'kidlaydi va ushbu mavzuni nima uchun tanlaganligini yozadi. Ya'ni, muallif o'z tabiati va fe'l-atvoriga mos mavzuda asar yozmoqchi bo'lib, Payg'ambarimiz hazillarini o'z ichiga olgan hadislarini to'plashni maqsad qilganini muqaddimada aniq ta'kidlaydi [4].

Mutafakkir ushbu asarida ayrim manbalarning nomini aniq ko'rsatib, ba'zilarini esa faqat mualliflarning ismini berish bilan kifoyalaniq iqtibos keltirgan. Bular: Bayhoqiy (vafoti 1066-yil)ning "Daloil un-Nubuvva, G'azzoliy (vafoti 1111-yil)ning "Ihyou Ulumid din", Bag'oviy (vafoti 1122-yil)ning "Sharh us-Sunna", Zamaxshariy (vafoti 1144-yil)ning "Rabiy ul-Abror, Navaviyning "Kitob ul-Azkor" va Suyutiy (vafoti 1505-yil)ning "Al-Itkan fi ulumi'l-Qur'on" asarlaridir.

Umuman olganda, asardagi hadis matnlarining ta'rifi ushbu manbalarda keltirilgan hadislar bilan bir xil. Qolaversa, asarning sharhlari va epilogida G'azzoliyning "Ihyou Ulumid din" va Bag'oviyning "Sharh us-Sunna" asarlariga murojaat qilinadi. Ba'zi hadislarining sharhlarida Bag'oviy asarida qayd etgan hadisning sahihligiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Toshko'prizoda ba'zi manbalarning nomini tashlab, faqat muallifning ismini keltiradi. Bular: Ibn Sikkat (vafoti 858-yil), Imom Buxoriy (vafoti 870-yil), Doraqutniy (vafoti 995-yil), Subqiy (vafoti 1370-yil), Kirmoniy (vafoti 1384-yil)lardir.

Ko'rinadiki, Toshko'prizoda Buxoriyning "Sahih"ini to'g'ridan-to'g'ri iqtibos qilib keltirmagan, balki uni "Sahih Buxoriy"ning sharhiga bag'ishlab yozilgan Kirmoniyning "Al-Kavoqib ud-Doriy" asarini berib o'tadi. Darhaqiqat, uning ushbu hadislardan so'ng qilgan

sharhlari Kirmoniyning yuqorida tilga olingan asariga kiritilgan bo‘lib, ba‘zi hadislar Buxoriyni tilga olmay, bevosita Kirmoniy tafsiridan rivoyat qilingan. Asar izohidagi rivoyatda Ibn Sikkit nomi qayd etilgan. Ko‘rinib turibdiki, bu rivoyat Ibn Sikkitning “Isloh al-mantiq” asariga ishora qiladi. O‘ttiz to‘qqizinchi hadisdagi rivoyat ham shu manbada uchraydi. Ko‘rinadiki, muallif Ibn Sikkitning yuqorida tilga olingan asarini o‘rganib chiqqan. Qirqinchi hadisdagi rivoyatlarda Doraqutniy va Subqiylarning nomlari zikr qilingan. Bu hadisdagi birinchi rivoyat Doroqutniyning “Sunan”idan, ikkinchi rivoyat esa Subqiyning “Tabaqat ash-shofi’iyyatul-kubro” asaridandir [4]. Muallif Doraqutniy hadisni mursal (hazil) tarzda rivoyat qilganligini ham ta’kidlagan.

Xulosa. “Latoif un-Nabiy” asarida Toshko‘prizoda tomonidan tilga olingan qirqta hadisning tarkibiy sistemasi quyidagicha keltirilgan: Sahih hadislar: 23 ta (1, 7, 8, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 20, 21, 22, 23, 26, 28, 30, 33, 32, 33, 33-hadislar); Hasan hadislar: 3 ta (4, 6, 27-hadislar); Zaif hadislar: 5 ta (5, 9, 18, 25, 35-hadislar); Mursal (hazil) hadislar: 3 ta (19, 34, 40-hadislar); Birlamchi hadis manbalarida tadqiq qilingan, ammo rivoyat zanjiri yo‘q hadislar: 3 ta (2, 3, 29-hadislar); Al-Kirmoniy yoki Ibn Sikkitdan rivoyat zanjirisiz keltirilgan hadislar: 3 ta (24, 37 va 39-sonli hadislar).

Muqaddimada ta’kidlanganidek, hadislarini tanlashda asosiy e’tibor mavzu birligi hisoblanadi. Boshqa shartlar tilga olinmasa-da, asardagi qirq hadisning sahifligi tekshirilganda, rivoyatlarning aksariyati sahih, hasan, qabul va rad etish jihatidan maqbul ekanligi ayon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Müstakim Arıcı. Taşköprizade’nin ahlak ve siyaset düşüncesi (Değerlendirme: Valid Hamza) // <https://www.bisav.org.tr/Bulten/274/1665>
2. Gazâlî, Ebû Hâmid Muhammed b. Muhammed. İhyâu ulûmi’d-dîn, Dâru İbn Hazm. –Beyrut, 2005. –S. 1017.
3. Nevevî, Ebû Zekeriyâ Yahya b. Şeref, Kırk Hadis, Terc. Babanzâde Nâim, Haz. Fatih Yıldız, Büyüyen Ay. –İstanbul, 2016. –S. 88.
4. Ayşenur Yaren. “Taşköprizâde’nin Letâifü’n-Nebî adli eserinin tahkik, tahrir ve değerlendirilmesi” (Yüksek lisans tezi). –İstanbul: Fatih Sultan Mehmet Vakif üniversitesi, 2019. –S. 34-35.